# QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGAShINING 2015 YIL, 23 MAY №126-SON QARORI

**QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGAShINING QARORI**

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 13 maydagi « Davlat xizmatlari koʻrsatish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligi tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida »gi 120-sonli qarori toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida» 2015 yil 4 fevraldagi PK-2293-con qaroriga muvofiq, «Elektron hukumat» tizimi doirasida idoralararo axborot hamkorligini takomillashtirish, aholiga va tadbirkorlik subʼektlariga davlat xizmatlari koʻrsatish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 13 maydagi «Davlat hizmatlari koʻrsatish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligi tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 120-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida koʻrsatilgan qarori bilan:

a) Quydagilar:

davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestrini shakllantirish va yuritish tartibi toʻgʻrisidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

davlat xizmatlari koʻrsatishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot xamkorligi tartibi toʻgʻrisidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlaganligi;

b) axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestrini shakllantirish va yuritish yuzasidan masʼul idora etib belgilanganligi va unga quyidagilar yuklangan:

davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestri shakllantirilishini, shuningdek davlat xizmatlari koʻrsatishda mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligini taʼminlash boʻyicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirishni amalga oshirishi;

aholiga va tadbirkorlik subʼektlariga davlat xizmatlari koʻrsatish tartibini yanada takomillashtirish, davlat organlarining maʼmuriy tartibotlarini axborotlashtirish boʻyicha doimiy monitoring oʻtkazishi va takliflar kiritishi;

davlat xizmatlari koʻrsatishda oʻz vaqtida va kelishilgan idoralararo elektron hamkorlikni tashkil etish hisobiga mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir takliflar ishlab chiqishi;

v) Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va komunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligiga:

Oʻzbekiston Respublikasi Iktisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatlari koʻrsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar roʻyxati bir oy muddatda xatlovdan oʻtkazilishini va 2013-2020 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini muvofiqlashtirish respublika komissiyasiga kiritilishini;

ikki oy muddatda Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestri, shuningdek davlat xizmatlari koʻrsatuvchi mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlarning idoralararo elektron hamkorlik tizimi yaratilishini;

davlat xizmatlari koʻrsatishda mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar oʻrtasida idoralararo elektron hamkorlik amalga oshirilishi yuzasidan har chorakda monitoring oʻtkazilishini, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha aniq takliflar ishlab chikilishini taʼminlashi belgilanganligi;

g) davlat xizmatlari koʻrsatuvchi mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshka tashkilotlar Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2015 yil 1 sentyabrgacha boʻlgan muddatda:

koʻrsatiladigan barcha davlat xizmatlari, shuningdek foydalaniladigan shakllar va blankalarni, keyinchalik Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestriga kiritgan xolda, xatlovdan oʻtkazishi va reglamentlashtirishi;

xatlov natijalariga koʻra davlat xizmatlari koʻrsatish uchun talab qilinadigan idoraviy maʼlumotlar bazalarini yaratishi va shakllantirish chora-tadbirlari rejalarini hamda tarmoq jadvallarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi topshirilganligi, maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududiy boshqarmasi Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestrini shakllantirish va yuritish yuzasidan masʼul hududiy ishchi idora etib belgilansin.

4. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Iktisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududiy boshqarmasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda:

davlat xizmatlari koʻrsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar roʻyxati bir oy muddatda xatlovdan oʻtkazilishini va 2013-2020 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Milliy axborot-komunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini;

ikki oy muddatda Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestri, shuningdek davlat xizmatlari koʻrsatuvchi mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlarning idoralararo elektron hamkorlik tizimi yaratilishini;

davlat xizmatlari koʻrsatishda mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar oʻrtasida idoralararo elektron hamkorlik amalga oshirilishi yuzasidan har chorakda monitoring oʻtkazilishini, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha aniq takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Kengashiga kiritib borishini taʼminlasin.

5. Davlat xizmatlari koʻrsatuvchi mahalliy davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari hamda boshqa tashkilotlar Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududiy boshqarmasi bilan birgalikda 2015 yil 25 avgustgacha boʻlgan muddatda:

koʻrsatiladigan barcha davlat xizmatlari, shuningdek foydalaniladigan shakllar va blankalarni, keyinchalik Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari yagona reestriga kiritgan xolda, xatlovdan oʻtkazsinlar va reglamentlasinlar;

xatlov natijalariga koʻra davlat xizmatlari koʻrsatish uchun talab qilinadigan idoraviy maʼlumotlar bazalarini yaratishi va shakllantirish chora-tadbirlari rejalarini hamda tarmoq jadvallarini ishlab chiqsinlar va tasdiklash uchun Vazirlar Kengashiga kiritsinlar.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi oʻrinbosari J.Yembergenov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi** **B.Yangibaev**

Nukus sh.,

2015 yil, 23 may

№126

*Ko'rib chiqildi:*

Izlash

- Vazirlar Kengashi
- Statistik va tahliliy maʼlumotlar
- Vazirliklar va idoralar
- Shahar va tuman hokimliklari
- Hujjatlar
- Respublika mehmonlariga
- Elektron hukumat
- Interaktiv davlat xizmatlar